

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2024



+998945668868



www.innoworld.net










BOZOR KONTEKSTIDA QO'LLANUVCHI METAFORALAR
Abdumo'min Mamtaliyev

ADU 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Metaforalash jarayonlari qarama-qarshi yo'nalishlarda: odamdan tabiatga, tabiatdan insonga, jonsizdan jonliga, jonlidan jonsizga¹ tarzida sodir bo'ladi. Bu jarayonda metaforik ko'chim o'xshagan va o'xshatilgan obyekt orasidagi bevosita yoxud bilvosita yaqinlik, shakl, belgi, harakatdagi uyg'unlik asosida voqelanadi.

Kalit so'zlar: metafora, metaforalash jarayoni, bozor konteksti, voqelik, tasvirlash vositalari, ramziy ma'no

Аннотация: метафорические процессы протекают в противоположных направлениях: от человека к природе, от природы к человеку, от неживого к живому, от живого к неживому. Метафорическое перемещение в этом процессе происходит на основе прямой или косвенной близости между подобным и имитируемым объектом, гармонии в форме, характере, движении.

Ключевые слова: метафора, процесс метафоризации, рыночный контекст, реальность, средства изображения, символизм

Annotation: metaphorizing processes occur in opposite directions: from person to nature, from nature to man, from inanimate to animate, from animate to inanimate. In this process, the metaphorical movement is realized on the basis of direct or indirect closeness between an object that looks like and is likened, harmony in shape, character, movement.

Keywords: metaphor, the process of metaphorization, market context, reality, means of representation, symbolism

Deberdeevaga ko'ra "Metafora bir hodisani boshqasiga shu hodisalarni tasvirlovchi holatlar, xususiyatlar va harakatlarning semantik yaqinligi asosida o'xshatishda yuzaga keladi. Rasmiy nuqtai nazardan metaforik o'tkazish voqelikning ba'zi obyektlarini (vaziyatlarini) belgilash, boshqa obyektlarni (vaziyatlarni) shartli identifikatsiya qilish asosida nomlash uchun mo'ljallangan so'zdan (ibora, jumla) foydalanishdan iborat"².

¹ Zhdanova Eleonora Andreevna, Abzhamalova Nilzhan Dauirovna, Svich Natalya Anatolyevna. Metaphor and the process of metaphorizing of the meaning of words.

<https://scientificconference.com/images/PDF/2017/35/metaphor.pdf> .Murojaat etilgan sana: 10.09.2024

² Дебердеева. Е.Е. Метафора в контексте лингвистических исследований. <https://cyberleninka.ru/article/n/metafora-v-kontekste-lingvisticheskix-issledovaniy>.



Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda metaforalarning “fikrni to‘shib qo‘yishi va uni faqat ma‘lum bir fikrlash modeliga qulflashi” aytiladi³. Xususan, bu jarayon muayyan soha bilan cheklangan nutq situatsiyasi, nutq momenti, nutq joyida ayri-ayri ko‘rinish oladi.

Metaforalash jarayonlari qarama-qarshi yo‘nalishlarda: odamdan tabiatga, tabiatdan insonga, jonsizdan jonliga, jonlidan jonsizga⁴ tarzida sodir bo‘ladi. Bu jarayonda metaforik ko‘chim o‘xshagan va o‘xshatilgan obyekt orasidagi bevosita yoxud bilvosita yaqinlik, shakl, belgi, harakatdagi uyg‘unlik asosida voqelanadi. Shu jihatdan o‘zbek tilidagi metaforalarni komponent-struktur xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflagan tilshunos G.Qobuljonova yigirmaga yaqin metaforik ko‘chim yo‘nalishlarini ajratadi: jonli narsa - jonsiz narsa, fizik hodisa - psixik hodisa, o‘rin - o‘rin, odam -narsa, hayvon - odam va b.q⁵.

Tilimizda barcha tillarga birday xos bo‘lgan konseptual metaforalar ham uchraydi. Xususan, Lakoff va Jonson “yuqoriga-pastga, ichkari-tashqari, markaziy-periferik, faol-passiv” kabi asosiy yo‘nalishlar barcha madaniyatlarni kesib o‘tganga o‘xshaydi, ammo qaysi tushunchalar qaysi tomonga yo‘naltirilganligi va qaysi yo‘nalishlar muhimligi madaniyatdan madaniyatga farq qiladi” deb yozadi. Lekin o‘zbekcha so‘zlashuvda keng qo‘llaniladigan metaforalarning aksariyati faqat o‘zbek tilidan foydalanuvchilar uchun xoslangani bilan ahamiyatli, bu narsa metaforalarning muayyan madaniyat bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalqi bozor-maydon kontekstida qo‘llaydigan metaforalarni tahlilga tortamiz.

Belgi - belgi⁶

Bozor bugun dim. Berilgan gapdagi *dim* leksemasi bo‘lib, *bozor* so‘zi bilan valentlik hosil qilganda metaforani yuzaga chiqarmoqda. Dim so‘zining quyidagicha semalarini mavjud:

- 1) Shabadasiz issiq
- 2) Havosi yetishmaydiga, og‘ir
- 3) Ichi havo bilan to‘lib qolgan (O‘TIL)

³ Metin A., Bayrakci M. Metaforik dushunme ve Ogrenme yaklasimının eğitim Ogretim acısından incelenmesi: 100-108

⁴ Zhdanova Eleonora Andreevna, Abzhamalova Nilzhan Dauirovna, Svich Natalya Anatolyevna. Metaphor and the process of metaphorizing of the meaningof words.

<https://scientificconference.com/images/PDF/2017/35/metaphor.pdf> .Murojaat etilgan sana: 10.09.2024

⁵ Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. F.F.H. ilmiy darajasini olish uchun ezilgan dissertatsiya. -T., 2000

⁶ O‘zbekcha so‘zlashuvdagi metaforalar tahlili jarayonida G.Qobuljonova asosga qo‘ygan tahlil usulidan foydalanildi





Berilgan misolda dim soʻzining 1-semasi (shabadasiz) maʼnosi bozor soʻzi bilan birikib koʻchimga asos boʻladi. Dim soʻzining qolgan maʼnolari bozor soʻzi bilan valentlik hosil qila olmaydi. bozor dim jumlasida xaridorlarning kamligi yoki savdoning yurishmayotgani kabi maʼnolar anglashiladi va bozor sust jumlasida ham shu maʼnoda soʻzlashuvda faol qoʻllanadi.

Shaxs - shaxs - narsa

"Falonchiyevlar shaharni ushlab turibdi"

Ushbu jumlada *ushlab turibdi* leksemasi metaforik koʻchim hosil qilgan. Ushlab turibdi soʻzini semalarga ajratamiz:

- 1) Qoʻl panja bilan tutmoq
- 2) Qoʻl, panja, barmoq orasiga olmoq
- 3) nazorat qilmoq
- 4) Qoʻlga olmoq, qoʻlga tushirmoq (OʻTIL)

Shaxslar shaharni ushlab turishi tarzda metaforik koʻchimni hosil qilish uchun 3-sema (nazorat qilmoq) asos boʻlgan. *Gulandon otasiga ergashayotgan ukasini otasi koʻzdan gʻoyib boʻlguncha ushlab turdi.* (Oʻz maʼnoda) Ushbu jumladan ushlab turmoq feʼli qoʻl bilan ushlab harakatini ifodalash bilan bir qatorda nazorat qilmoq maʼnosini ham anglatadi. Shuni unutmaslik kerakki, *ushlamoq* feʼlining *nazorat qilmoq* maʼnosini yuzaga chiqarishida bu feʼl bilan birga qoʻllangan koʻmakchi feʼl (turibdi) ning vazifasini (oʻz maʼnoda ham, koʻchma maʼnoda ham) sezish qiyin emas.

"Cobalt" va "Jentra" bozorni ushlab turibdi. Avtomobil bozori kontekstida uchraydigan ushbu jumlada *ushlab turibdi* leksemasi metaforik koʻchim hosil qilishida ham *nazorat qilmoq* maʼnosi asos boʻlgan. Biroq ushbu jumladagi koʻchma maʼnoda qoʻllangan ushlab turmoq birikmasi oʻz maʼnosiga bevosita emas, bilvosita aloqadordir. Yaʼni *"Falonchilar shaharni ushlab turibdi"* jumlasidagi sema keyinchalik predmetga ("Cobalt", "Jentra") koʻchgan.

Yangi yil arafasi-ku, kiyim-kechaklar ancha tashladi. Ushbu jumlada tashladi feʼli koʻchma maʼnoda qoʻllangan. Bu soʻzning asl maʼnosini koʻrib chiqamiz:

1. Narsani yuqoridan quyiga tushirmoq, yoʻnaltirmoq
2. Narsani biror narsa, joy ustiga, ichiga yoʻnaltirmoq
3. Kuch, zarb bilan intilmoq
4. Eʼtiborsiz qoldirmoq, aloqani uzmoq
5. Barham bermoq, yoʻq qilmoq, yigʻishtirmoq
6. Pasaymoq, tushmoq (OʻTIL)

Jumladagi metaforik koʻchim uchun soʻzning 1-va 6-semalari asos boʻlmoqda. Kiyim-kechak (narxi) ning tashlashi narx-navo, yaʼni mahsulotning qiymati pasayganini anglatadi.

Hozir trikotaj mahsulotlarining bozori chaqqon. Ushbu gapda chaqqon soʻzi koʻchimni yuzaga keltirgan. Bu soʻzning metaforizatsiyalanganini aniqlash uchun semalarga ajratib chiqamiz:



1. Epchillik bilan harakat qiladigan
2. Tez

Jumlada ko'chim so'zning 2-semasi orqali hosil bo'lmoqda va shaxs/narsa - narsa tarzidagi metaforizatsiyani hosil qilmoqda. Mahsulotning xaridorgir, qisqa fursatlarda sotib tugatilishi, talab yuqori ekanligi metafora uchun asos bo'lgan.

Xulosa qilinsa, metafora asosidagi ko'chim so'zlashuv uslubida nihoyatda faol bo'lib, nutqning tejamkorligi, aniqligi, ekspressiv-emotsional bo'yog'ini oshirishga xizmat qiladi.



INNOVATIVE
WORLD

